XALQ DEPUTATLARI XORAZM VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 17 - fevral VI-56-22-12-0-K/23 Xorazm viloyati hokimligi

Xorazm viloyatining ayrim qishloq (ovul) aholi punktlari shaharsozlik hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida

Xorazm viloyati qurilish bosh boshqarmasining 2022-yil 6-dekabrdagi 442-X-sonli xatini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksining 45 va 46-moddalari hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga asosan xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashi

Qaror qilaman:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-iyuldagi 639-sonli qaroriga asosan 2022-yilda “Qishloqqurilishloyiha” MChJ tomonidan ishlab chiqilgan qishloq (ovul) aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xorazm viloyati qurilish bosh boshqarmasi huzuridagi arxitektura-shaharsozlik kengashi tomonidan ma’qullangan, bosh loyiha instituti “O‘zshaharsozlik LITI” DUK tomonidan ishlab chiqilgan 2 ta shahar tipidagi posyolkalar (Shovot tumani “Bo‘yrachi” sh.t.p., Yangiariq tumani “Gulbog‘” sh.t.p.) ishlab chiqilgan hujjatlar to‘plamlari 1-2-ilovalarga muvofiq tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligiga yuborilsin.

3. “Qishloqqurilishloyiha” MChJ tomonidan ishlab chiqilgan Yangiariq tumani “Qo‘riqtom”, “Savgan”, “Do‘stlik”, “Qarmish”, va “Kattabog‘” MFY, Yangibozor tumani “H.Olimjon”, “Bog‘olon” va “Qoratepa” MFY, Shovot tumani “Monoq”, “Beshchig‘ir”, “Yangi burloq” va “Maxtumquli” mahalla fuqarolar yig‘inlarining bosh reja loyihalari ishlab chiqilishi bilan bir vaqtda batafsil

rejalashtirish loyihalari hamda unga yondosh mahallalarning shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemalari asosiy holatlari va texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari bilan birgalikda ishlab chiqilgan hujjatlar to‘plamlari 3-14-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

4. Yangiariq, Yangibozor, Shovot tumanlari hokimliklari, Xorazm viloyati qurilish bosh boshqarmasi(B.Karimov) bilan birgalikda o‘z vakolatlari doirasida:

- tegishli mutasaddi tashkilot va idoralarni jalb etgan holda yondosh mahallalarni shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemalariga muvofiq, mahalla fuqarolar yig‘inlari hududlarini shaharsozlik jihatidan va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqib, tasdiqlash;

- mahalla fuqarolar yig‘inlari hududi yerlaridan maqsadsiz foydalanishga va noqonuniy qurilishlarni amalga oshirishga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan qat’iy nazorat o‘rnatish yo‘li bilan ulardan samarali foydalanish;

- energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali muhandislik-kommunikatsiya tuzilmasini (suv, elektr, gaz, issiqlik ta’minoti, telekommunikatsiya ob’ektlari, kanalizatsiya, irrigatsiya) qurish va rekonstrutsiya qilish yo‘li bilan modernizatsiya qilish;

- ko‘p qavatli uy-joylar, ta’lim, sog‘liqni saqlash, sport, madaniyat, san’at va dam olish obektlarini oqilona joylashtirish hamda bosh rejaga muvofiq, infratuzilmani rivojlantirish tavsiya etilsin.

5. Xorazm viloyati qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyasi (M.Alaberganov), aholi punktlarining tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlariga asosan, qurilish obyektlarini joylashtirilishiga qat’iy amal qilinishini nazoratga olsin.

6. “O‘zshaharsozlik LITI” DUK hamda “Qishloqqurilishloyiha” MChJ bosh loyiha qidiruv institutlari tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlarini amalga oshirilishida qonunchilikda belgilangan tartibda mualliflik nazoratini o‘rnatsin.

7. Viloyat hokimligi axborot xizmati (O.Adamboyev) mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishi va veb-saytga o‘rnatilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Xorazm viloyati

Kengashining sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi R.Sherjanov zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi **A.Radjabov**